

8-dekabr Konstitutsiya kuniga bag'ishlangan tadbir senariysi

Tadbir o'tkaziladigan joy bayramona bezatilgan. Chor atrofga Konstitutsiyamizga bag'ishlangan shiorlar, devoriy gazetalar ilib qo'yilgan. Shuningdek, siyosiy adabiyotlar, o'quvchilarning qomusimiz haqida yozgan ma'ruzalari, ijodiy ishlari ko'rgazmasi tashkil etilgan.

(Magnitofon tasmasidan Vatan haqidagi kuy taraladi va sahnaga adabiy kecha qatnashchilari chiqadi).

1-boshlovchi - Qo'lingda erk boshda yalov, tilingda shurud,
Vatanning bor, maktab-bog'chang, or-nomusing bor.

2-boshlovchi:-O'zbekiston deb atalgan muqaddas hudud,
O'z Davlating, Qomusing, o'z madhiyang bor

MADHIYA YANGRAYDI

1-boshlovchi: Shukrona aytamiz qutlug' kunlarga,
Ma'noga, mazmunga to'liq kunlarga.
Farovon, nurafshon ulug; kunlarga,
Ey, ozod diyorim – O'zbekistonim!
Ey, ozod diyorim – O'zbekistonim!

2-boshlovchi: Yangi davrv keldi, o'zgardi zamon,
Zamon zayli bilan o'zgardi inson.
O'zgardi jamiyat, o'zgardi hayot,
O'zgardi qo'shig'-u o'zgardi hayot!

“Assalom “ qo`shig`i

1 – boshlovchi:-Assalomu alaykum, azizlar, qalbi otash, mehri quyoshlar. Mana bugun qomusimizning 15 yillik bayrami munosabati bilan Baxtnomamizni kuylash sharafiga ega bo'lib turibmiz. Bayramga bag'ishlangan tadbirni, marhamat, tomosha qiling.

2 –boshlovchi

Baxtiyorman hur elimning
Adolatli shioridan,
Xalqim dildan ulug'lagan,

O`quvchi-Shahzoda

Mana, ko'ring, havas qiling,
Unib o'sgan hidoyatdan.
Saodatli elga baxt yor,

Tafakkuri, qaroridan.
Qoyil qolsin ro'yi zamin,
Odillikdan, adolatdan.

Iymonu e'tiqodim bor.
Munisgina onam kabi,
Istiqlolim baxtinga yor.

Hamma: Zavol ko'rmas iqbolim bor!

Zilola - Havas qilsa arzigulik, baxtim bor,
Nurli yo'lga boshlaguvchi ahdim bor.
Fidodirman toki tanda qonim bor,
Men elimning Qomusini kuylayman!

1 – boshlovchi: -O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi o'z xalqining huquqlarini himoya qilib, hozirgi va kelajak avlodlar oldidagiyuksak mas'uliyatni anglagan holda, Respublika fuqarolarining munosib hayot kechirishlarini ta'minlashga erishish, tinchlik va milliy totuvlikni ta'minlash maqsadida qabul qilingan. Biz uni g'urur bilan "Baxtimiz Qomusi", deya ataymiz.

2 – boshlovchi: Konstitutsiyamiz 1992 yil 8 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 11 sessiyasida qabul qilingan.

-Qani bolalar, Konstitutsiyamiz haqida siz nimalarni bilasiz?

1-o'quvchi: — 1990-yil iyun O'zbekistonda Mustaqillik Deklaratsiyasi e'lon qilindi. Bu mustaqillik uchun ilk qadamlardan bo'ldi.

O'zbekiston- ozod ,hur Vatan!

Quchoqlari to'la nur Vatan!

Istiqloling abadiy bo'lsin.

Dunyolar turguncha tur,
Vatan!

2-o'quvchi: 1991-yil 31-avgust O'zbekiston o'z mustaqilligini e'lon qildi.

Mustaqillik kuni muborak bo'lsin.

Toabad istiqlol oftobi kulsin.

Mustaqillik berdi bizga saodat,

Berdi e'tiqod-u, keng imkoniyat.

“Mustaqil Vatan “ qo`shig`i

3-o'quvchi: 1992-yil 2-mart O'zbekiston Respublikasi BMT a'zoliciga qabul qilindi.

Sen ham endi tenglar ichida tengsan,

Bag'ri butun yurtsan va bag'ri

kengsan.

Sendek xalqimning ham bag'ri

butundir,

Dunyo binosida bitta ustundir.

Millatlar uyida barcha qatori

Uning xos o'rni bor- qatorda nori

4-o'quvchi:

Yaxshilar tufayli ozod diyorim,

Ozodlik tufayli obod diyorim,

Eng Oliy Qomusga chekkanda imzo.

Yaxshilarni ko'rdi o'zidan rizo.

Ne qissa. Hurriyat qomusidir u.

Ulusning oriyu nomusidir u .

Istiqlol bir yoshdan oshgan chog'ida.

U tug'ildi yaxshilikning bog'ida.

Mustaqillik bergan oliy baxtdir bu,

O'zbekka yarashgan toj-u taxtdur bu.

Konstitutsiyamiz nodir chinakam

U biz uchun eng oliy hakam!

1-boshlovchi: Mustaqil O'zbekistonning Konstitutsiyasi, Prezidentimiz qayd etganidek, o'zining tub mohiyati, falsafasi, g'oyasiga ko'ra yangi hujjatdir. Undagi g'oya va printsiplar fuqarolik jamiyatini va huquqiy davlatni shakllantirishga asos qilib olingan.

2-boshlovchi: Asosiy Qomusimizda xalq hokimiyatining real omillari ko'rsatib berilgan. CHunki hammamizga ma'lumki, davlatimizda amalga oshirilayotgan barcha ishlar, siyosiy-iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy islohotlarning hammasi xalq, inson manfaatlari, uning turmush tarzini yaxshilashga xizmat qiladi. Har bir kunimizning baxtli, dasturxonimiz to'kin, xonadonimiz yopyg' bo'lishining negizini tashkil etadi.

5-o'quvchi: 1-modda: O'zbekiston suveren demokratik Respublika. Davlatning O'zbekiston Respublikasi va O'zbekiston degan nomlari bir xil ma'noni bildiradi

Karnay-surnay ovoz berdi jahonga,
Jahonni qaratdi O'zbekistonga.
Temurning ruhiga qilib qasamyod,
Yolboshchimiz etdi xalq dilini shod,
Yo'lboshchi so'zini ettirdi davom,

Dilida xalqiga chuqur ehtirom
Hech hazon bo'lmasin biz kezgan
chaman,
Bizdan qolsin ozod va obod Vatan.

6-o'quvchi:

Marifat bo'stoni ezgu dostoni,
Dostligu tinchlikning metin
qo'rg'oni,

Ey, ozod diyorim, O'zbekistonim.
Ey obod diyorim O'zbekistoni!

“Do`ppi tikdim” raqs

7-o`quvchi: 3-modda: O`zbekiston Respublikasi o`zining milliy-davlat va ma`muriy-hududiy tuzilishini, davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining tizimini

belgilaydi, ichki va tyashqi siyosatini amalgam oshiradi. O`zbekistonning davlat chegarasi va hududi dahlsiz va bo`linmasdir.

Dunyo xaritasin bezab shersimon,
Qulochini yoydi hur O`zbekiston.
Xaritaga soling diqat nazarin,
Ko`ring, havas qiling yurtim
manzarin.
U qaddin rostlagan sherga o`xshaydi.

Pahlavon, bahodir erga o`xshaydi.
Istibdod zanjirin uzib batamom,
O`zligin olamga etdi namoyon.
Ozod nafas oldi bu jaho aro,
Va dunyo bog`iga baxsh etdi oro.

8-o`quvchi: 4-modda: O`zbekiston Respublikasining davlat tili o`zbek tilidir. O`zbekiston Respublikasi o`z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlar va an`analari hurmat qilinishini ta`minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi.

Shu tilda Temur bobo
Lashkarga buyruq bergan .
Navoiy tuzgan navo,
Bobur gavharlar tergan

“Til- xalqning shavkat- shoni”,
Bu bobolar kalomi
Ona tilim unvoni Davlat tili maqomi

9-o`quvchi: 5-modda: O`zbekiston Respublikasi qonuni bilan tasdiqlangan o`z davlat ramzlari- bayrog`i, gerbi va madhiyasiga ega.

Olam ahli bilan qilib barobar,
Ayladi qadrdon, do`st-u birodar.
Chiqardi millatlar uyin to`riga,
Umr qo`shdi O`zbekiston umriga.
Mulki jahon bayroqlari qatori,

Shula sochdi bayrog`imiz sharori.
Olam aro madhiyamiz yangradi,
Eshitganki, kishi joni yayradi.
Mustaqillik bergan oliy baxtdir bu,
O`zbekka yarashgan toj-u taxtdur bu!

“Yurt bayrog`i” qoshig`i

10-o`quvchi: 6-modda: O`zbekiston Respublikasining poytaxti – Toshkent shahri.

Ey ko`hna diyorum, ona Toshkentim,
Tarixda nomi Choch, gohi
Shoshkentim!

Binkentu, Banokat, ko`zi yosh
kentim,
Egilgan, sinmagan, boshi
Toshkentim!

11-o`quvchi: 7-modda: Xalq davlat hokimyatining birdan-bir manbayidir. Adolatning qo`yib tamal toshini,
Yo`lboshchi ko`tardi xalqning boshini.

U tinim bilmasdan ishladi shoyon.
Konstitutsiyaga fido qildi jon.
Birnchi o'ringa qo'yib insonni,
Inson sharafiga baxsh etdi jonni.
Qonunlar insonga qilmasa xizmat,

Qonunlar insonni etmasa izzat.
Qonun emas, dedi undayin qonun,
Qonunda Insondir zori Humoyun.
Davlatning sharafi, shoni insondir,
Tanasi, yuragi, joni insondir.

12-o'quvchi: 29-modda. Har kim fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi huquqiga ega.

Har kim o'zi istagan axborotni izlash, olish va uni tarqatish huquqiga ega, amaldagi

konstitutsiyaviy tizimga qarshi qaratilgan axborot va qonun bilan belgilangan boshqa

cheklashlar bundan mustasnodir. Fikr yuritish va uni ifodalash erkinligi faqat davlat siri va boshqa sirlarga taalluqli bo'lgan taqdirdagina qonun bilan cheklanishi mumkin

Fikrlash, so'z, e'tiqod

Erkinligi bor bizda.

Tafakkur, erkin ijod

Jo'sh urar qonimizda.

"Avval o'yla", deganlar

Fikrlaymiz o'ylaymiz.

So'zga navbat kelganda

Odob bilan so'zlaymiz.

13-o'quvchi: 31-modda: Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan diniga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmasligi huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi. Tiklandi iftixor va milliy g'urur, Tiklandi an'ana, urf-odatimiz, Endi o'zbekman deb ayturmiz, Tiklandi qadriyat tarix va moziy, mag'rur. E'tiqod, din-iymon, ilmiy ilohiy.

“Andijon polkasi” raqs

14-o'quvchi: 40-modda. Har bir inson malakali Tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega.

Betob bo'lib, botib g'amga,

Yotib qolsk

nogahon.

Shifokorlar tez yordamga

Yetib kelar shu zamon.

Malakali tibbiy xizmat

Ko'rsatadi shifokor

Elga xizmat – oily himmat

Sahna ko`rinishi

13-o'quvchi: 41-modda: Har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiy ta'lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi. Maktab ishlari davlat nazoratidadir. Ilmli kishini qadrlar zamon. Ilm bilan bezar umrini bashar, Ne zamon qadrlar jumlayi jahon, Umri oqibatda topgaydir qadr, Ilm bilan bezar umrini bashar. Ilmdan yaratdi eng oliy qasr.

14-o'quvchi: 2004-yil 22-may “2004-2009-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish davlat umummilliy dasturi to'g'risida”gi farmoni e'lon qilindi. 2017 yil 15 martda “Umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi nizom” qabul qilindi.

15-o'quvchi: 49-modda Fuqarolar O'zbekiston xalqining tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini avaylab-asrashga majburdirlar. Madaniyat yodgorliklari davlat muhofazasidadir

Obidalar, qo'lyozmalar
Ham osori atiq,
Bobolardan xabar berar,
Har nafas,har daqiqa.

Yodgorlikni asrar bo'lsang
Asraganday ko'zingni,
Shunda saqlab qolajaksan
Kelajakni, o'zingni

16-o'quvchi: 50-modda Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburdirlar

Bugun ekan qalamchang
Ka-a-tta terak bo'ladi.
Faqat uni avaylab
Asrash kerak bo'ladi

Tog' go'zal, o'tloq go'zal,
Sevamisiz gulatrini.
Esda tutaylik, do'stlar,
Tabiatning qadrini

"Kamalak" qo'shig'i yangraydi

17-o'quvchi: 55- modda Yer,yer osti boyliklari , suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zahiralari umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir.

Yer,yer osti boyliklar,
Suv, o'simlik dunyosi-
Umummilliy xazina,
Topilmaydi qiyosi.

Qanoat, insof darkor,
Tagi mo'l bo'lgan bilan,
Kelajakning haqqi bor,
Oqilona foydalan!

18-o'quvchi: 64-modda: Ota- onalar o'z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar. Davlat va jamiyat yetim bolalarni va ota-onalarining vasiyiligidan mahrum bo'lgan bolalarni boqish, tarbiyalash va o'qishni ta'minlaydi, bolalarga bag'ishlangan xayriya faoliyatlarini rag'batlantiradi.

Ko'zlarida mehr bor, so'zlarida sehr bor,
Beshik ustida bedor- mehribon onaizor.
Oq yuvib, oq taragan, yo'limizga qaragan,
Ko'nglimizga qaragan- mehribon onaizor.

Ota-oila suyanchi,tog'dek ulug' tayanchi,
Biz tufayli quvonchi, baxtimizdan baxtiyor,
Sog'-salomat yursinlar, kamolimiz ko'rsinlar,
Ertaga ham bo'lsinlar baxtimizdan baxtiyor

19- o'quvchi: 66-modda. Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar o'z ota-onalari haqida g'amxo'rlik qilishga majburdirlar

Jonajon onajon!
Mehribon otajon!
Siz hayot ferdingiz,
Bol, novvot berdingiz.
Quyoshim, oyimsiz,

Bor bo'ling doim Siz!
Ulg'ayib albatta,
Bir umr xizmatda
Bo'lamiz begumon,
Otajon, onajon

“Tinchlik bo`lsin” qo`shig`i

20- o`quvchi: 68- modda O`zbekiston Respublikasi viloyatlar, tumanlar, shaharlar, qishloqlar, qvullar, shuningdek Qoraqalpog`iston Respublikasidan iborat

Viloyatlar, tumanlar,
Shaharlar, shaharchalar,
Qishloqlar-unovullar va
Qoraqalpog`iston-

Bari-bari jam bo`lib,
O`zbekiston atalar ,
Shunday gul-chechaklardan
Yaralgan go`zal bo`ston!

1-boshlovchi: Konstitutsiya jahon andozasida yozilgan, ilg'or va takomillashgan Qomusdir. U huquqiy-demokratik davlatning eng asosiy qonuni hisoblanadi. Konstitutsiyamizning qanchalar mukammal ishlab chiqilishi, mamlakatda amal qilinishi

2-boshlovchi: Ayniqsa, xalq manfaatlariga xizmat qilayotganligi yurt-doshlarimizning ertangi kuni porloqligidan dalolat beradi. U mustaqillik, ozodlik va xalqparvarlik g'oyalari bilan sug'orilib, kelajakda O'zbekistonning buyuk davlatga aylanishini ta'minlashga kodirdir.

Aql Adolatni etur ustuvor.
Adolatli jamiyatga berganda baxo
Qomusimiz nodir, tengsiz va a'lo!
Vatan posbonimiz bo'laylik hushyor,
"Xorazmcha" raqs

Nifoq urug'ini sochmasin ag'yor,
Fidoi bo'laylik Mustaqillikka,
Bizni chorlamoqda haq ahillikka.

1-boshlovchi: Mana O'zbekiston Respublikasining 25 yilligi munosabatiga bag'ishlangan tadbirimiz nihoyasiga yetib bormoqda

2 boshlovchi: Hozirgi so'zni maktabimiz rahbari Muborak opa Inoyatxodjayevaga beramiz.

1 boshlovchi: Тенгларнинг ичида бугун тенг ўзим,

Жаҳоний тўнларга ёқа, енг ўзим,

Дунёлар бағримда, бағри кенг ўзим,

2-boshlovchi: Эй, менинг ўзлимим - ғурур, номусим,

Конституциям - олий Қомусим.

Aqlga tayangan Qomusimiz bor,

"Hech kimga bermaymiz seni O'zbekiston" qo'shig'i